



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 12 (1611), 2026-yil 20-yanvar, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON – ITALIYA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI

19-yanvar kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda to‘xtagan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni bilan uchrashuv o‘tkazdi.



O‘zbekiston — Italiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini ko‘rib chiqildi.

2025-yilning may oyida Samarqandda oliy darajada erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turli darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi va qo‘shma korxonalarning soni barqaror o‘tib bormoqda. Hududlararo, shu jumladan, Lombardiya bilan almashinuvlar rivojlanmoqda. O‘zbekiston fuqarolarining tartibli mehnat migratsiyasi uchun kvotalar ajratildi.

“Finopera”, “ANCI”, “Pietro Fiorentini”, “Danieli” va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda. O‘tgan yil oxirida Samarqandda Tushia universitetining filiali ochildi.

Joriy yilda tashqi siyosat idoralari strategik muloqoti va hukumatlararo komissiyaning yig‘ilishlari, shuningdek, ikkinchi Rektorlar forumini o‘tkazish rejalashtirilgan.

To‘qimachilik sanoati, geologiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari, moliya bozori va boshqa ustuvor sohalardagi qo‘shma loyihalarni ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Italiyada O‘zbekiston, O‘zbekistonda esa Italiya kinosi kunlarini o‘tkazish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. O‘zbekistonning navbatdagi Venetsiya biyennalesida ishtirok etishi hamda bu yil Milanda amaliy san‘at va muzey ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Bosh vaziri Jorja Melonini O‘zbekistonga alohida tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O‘zA

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

## ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA PERSONALLASHTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma‘lumotlarni himoyalash faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-45-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda migratsiya va personallashtirish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali aholiga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish hamda sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish maqsadida **qaror qilaman:**

#### I. Ustuvor yo‘nalishlar

1. Quyidagilar migratsiya va personallashtirish sohasida **davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari** etib belgilansin:

a) ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo‘linmalarini bosqichma-bosqich **tezkorlik va shaffoflik** tamoyillari

asosida aholiga yanada qulay va sifatli xizmat ko‘rsatuvchi **“servis bo‘linmalar”**ga aylantirish;

b) migratsiya va personallashtirish sohasida **respublika — viloyat — tuman (shahar)** bo‘linmalar faoliyatini tashkil etishni sifat jihatidan **yangi bosqichga ko‘tarish** va ular samaradorligini oshirish;

v) migratsiya va personallashtirish sohasida ko‘rsatiladigan **davlat xizmatlarini raqamlashtirish**;

g) shaxsga doir ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchligini ta‘minlash;

d) sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali mavjud axborot tizimlarida **axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni** ta‘minlash.

#### II. Tashkiliy chora-tadbirlar

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti (keyingi o‘rinlarda — Departament) to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

b) Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha **“yo‘l xaritasi” 2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, **2026-yil 1-maydan boshlab eksperiment tariqasida** Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bittadan tuman (shahar) ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo‘linmalarida **o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish** imkoniyati yaratilgan, **sun‘iy intellekt asosida faoliyat yuritadigan “Aqlli” migratsiya shoxobchalari** (Smart migration stations) tashkil etilsin. Bunda:

a) dastlabki bosqichda **“Aqlli” migratsiya shoxobchalarida 3-ilovada** keltirilgan davlat xizmatlari ko‘rsatiladi;

b) Ichki ishlar vazirligi tomonidan o‘ziga o‘zi ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari kengaytirib boriladi.

4. Ichki ishlar vazirligi (A.A.Tashpulatov) **2027-yil 1-mayga qadar eksperiment natijasidan** kelib chiqib, **“Aqlli” migratsiya shoxobchalarini** respublikaning boshqa hududlarida, shuningdek, savdo va ko‘ngilochar markazlar, turistik hududlarda ham tashkil etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin.

#### III. Aholiga qulayliklar yaratish

5. Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Soliq qo‘mitasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining **quyidagi takliflari** ma‘qullansin:

Davomi 2-betda

## AHOLINI VA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISH JARAYONLARI ZAMONAVIY STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevga aholini va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Ushbu tadbir mamlakatimizda demografik jarayonlar, mehnat resurslari, ijtimoiy infratuzilma va hududiy rivojlanishni ilmiy asosda rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ro‘yxatga olish jarayonlari xalqaro standartlar asosida, zamonaviy raqamli yechimlardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda.

Ro‘yxatga olish joriy yilning 15-yanvaridan 28-fevraligacha ikki bosqichda o‘tkazilmoqda.

15-31-yanvar kunlari davom etadigan birinchi bosqichda fuqarolar maxsus axborot tizimi orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda esa 4-28-fevral kunlari “mahalla yetiligi” xodimlari tomonidan uy-ma-uy yurib, savdonomalar planshet qurilmalari orqali to‘ldiriladi.

Aholini ro‘yxatga olish jarayonlari census.stat.uz portalida amalga oshirilib, OneID tizimi orqali identifikatsiya qilinishi belgilangan.

Barcha ma‘lumotlar geoaxborot tizimi asosida monitoring qilinmoqda. Shu maqsadda respublika bo‘yicha 7,6 milliondan ortiq xonadon va turar joylarning geomanzillari shakllantirildi, jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beruvchi maxsus monitoring dashbordlari ishlab chiqildi.

Fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan barcha ma‘lumotlar qonunchilik talablariga muvofiq himoya qilinadi, shaxsiy ma‘lumotlar maxfiy saqlanadi

O‘zA

## ONLAYN RO‘YXATDAN O‘TISH DAVOM ETMOQDA

Shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi qanchalik kafolatlanadi?



4

## BU DUNYO – KURASH MAYDONI

quroli – sog‘lom jism-u tan, o‘tkir aql va xush axloq

### Yangi O‘zbekiston ruhi

Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas” degan jumlar bilan boshlanadi. Darhaqiqat, biz “tong” deganda doim sokinlik, orom, halovatni, yana bir umidbaxsh yangi kunning tug‘ilishini tushunamiz. Zero, yurtimizda tonglar shunday kutib olinadi, quyosh shunday kuzatiladi. Biz uchun bu mo‘jiza emas, odatiy kunimiz, har kungi hayotimiz. Bu bilan tinchlikni, qalb xotirjamligini teran his qilamiz. Lekin dunyoning qaysidir mintaqasida bosh ko‘targan quyosh odamlarga bu baxtni bera olmayapti. Chunki u yerlarda jon qayg‘usi hammani vahimaga solgan, har qadamda xatar ko‘lankasi izg‘iydi, tinchlik yo‘q, orom allaqachon yo‘qolgan.

Davomi 3-betda



## Inson qadri uchun

## ODAMLAR HAYOTINI YAKSHI TOMONGA O‘ZGARTIRAYOTGAN MANZILLI ISHLAR

Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimi tubdan isloh qilindi. Natijada u aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim tayanchga aylandi. Xususan, **“mahalla yetiligi”** ko‘magida har bir oilaning holati o‘rganilib, ishsizlar, kam ta‘minlangan va ehtiyojmand qatlam vakillari aniq manzilli ro‘yxat asosida qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida mahalla tizimining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini alohida e‘tirof etdi. Shuningdek, 2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilindi. Bu tashabbus o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini kuchaytirish, aholi farovonligini oshirish yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Albatta, mahallada har bir oilaning qo‘llab-quvvatlanishi umumiy taraqqiyotga olib keladi. Bunday o‘zgarishlarga misolni markaziy shaharlardan tortib, olis ovullargacha — barcha joyda istagancha topish mumkin. Jumladan, Amudaryo tumani Mang‘it shahridagi Farovon mahallasida kompleks ijtimoiy xizmat har bir ehtiyojmand oilaga kirib bormoqda.

Davomi 5-betda



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Q A R O R I

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA PERSONALLASHTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

a) 2026-yil 1-maydan boshlab Departament va uning hududiy boshqarmalariga O‘zbekistonga elektron kirish vizasi asosida kirib kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning elektron vizalarining amal qilish muddatini bir marotaba 30 kungacha uzaytirish huquqini berish;

b) chet el fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomani rasmiylashtirish vakolatini Departament va uning hududiy boshqarmalariga ham berish;

v) hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga chet el fuqarolari ta’lim olayotgan muassasalar yoki mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarda viza muddatini uzaytirish, turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish uchun korxona, muassasa va tashkilotlar mablag‘lari hisobidan shartnoma asosida migratsiya bo‘linmasiga shahodatlangan qo‘shimcha shtat birliklarini kiritish huquqini berish;

g) 2026-yil 1-sentabrdan boshlab talabalar yotoqxonasiga joylashish bo‘yicha shartnoma tuzish bilan bir vaqtda talabalarni turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning kompozit tartibini joriy etish;

d) 2026-yil 1-fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga identifikatsiyalovchi ID kartalar birinchi marotaba rasmiylashtirilganda uning chipiga kiritiladigan elektron raqamli imzo sertifikatini bepul berish hamda fuqaroni “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimida avtomatik tarzda bepul ro‘yxatdan o‘tkazish.

IV. Migratsiya va personallashtirish sohasini raqamlashtirish

6. Departament jismoniy shaxslarning quyidagi markaziy ma’lumotlar bazalarini

shakllantirish va doimiy yangilab borish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi:

a) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

b) identifikatsiyalovchi ID karta seriyasi, raqami, berilgan joyi hamda berilgan sanasi va tugash sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

v) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

g) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

d) O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar haqidagi, shuningdek, ularning viza muddati uzaytirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

7. Ichki ishlar vazirligi (A.A.Tashpulatov) 2026-yil 1-avgustga qadar sun’iy intellekt texnologiyalari asosida:

a) migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish, onlayn huquqiy maslahat berish, yuklamasi kam bo‘lgan migratsiya bo‘linmalari haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi “Pasport-viza” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining “Passport-visa” mobil ilovasini ishlab chiqsin.

Bunda mazkur mobil ilova orqali ko‘rsatilishi ko‘r‘da tutilgan migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlari dastlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yo‘lga qo‘yiladi;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekistonda bo‘lish qoidalariga rioya etilishini “Xavfsiz shahar” tizimi orqali aniqlash va monitoring qilish imkoniyatini yaratsin;

v) migratsiya va personallashtirish sohasida boshqa shaxsning roziligi talab etiladigan davlat xizmatlarini ko‘rsatishda

ularning shaxsini “Pasport-viza” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining “Face-ID” moduli masofadan turib aniqlash va roziligini olish imkonini beruvchi “E-Rozilik” platformasini ishga tushirsin.

8. Belgilansinki, 2026-yil 1-sentabrdan boshlab quyidagi davlat xizmatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi:

a) xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a‘zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish;

b) fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ariza yuborish;

v) mulkdor yoki turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining murojaati asosida uning turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini bekor qilish uchun ariza yuborish.

9. Ichki ishlar vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2026-yil yakuniga qadar shaxsga doir ma’lumotlar doimiy yangilanishi va xavfsizligini ta’minlash, davlat xizmatlari sonini oshirish hamda takrorlanuvchi ma’lumotlarni birlashtirish orqali axborot resurslaridan foydalanish qulayligini oshirish maqsadida Personallashtirish markazining ma’lumotlar bazalari va dasturiy ta’minotlarini Ichki ishlar vazirligining “Pasport-viza” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasiga birlashtirsin. Bunda:

a) shaxsga doir ma’lumotlar jamlangan “Yagona raqamli migratsiya” platformasi yaratiladi (Digital migration platform);

b) “Pasport-viza” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasini takomillashtirish, qo‘llab-quvvatlash, Departament va uning

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Toshkent shahri,  
2026-yil 19-yanvar

SH. MIRZIYOYEV

Mahalla barometri

IZLANISH, ISHTIYOQ VA HARAKAT SAMARASI

“Mevazor” kambarallikdan xoli kududga aylandi

Rishton tumanidagi “Mevazor” mahalla fuqarolar yig‘inida tug‘ilib o‘sgan Muhriddin Xolmatov maktabni tamomlagach, bir muddat xorijda ishladi. “Qo‘ldan berganga qush to‘ymas” deganlaridek, topgani ro‘zg‘orning kam-ko‘stidan ortmadi. Bu orada oila qurdi, farzandli bo‘ldi. Yelkasidagi mas’uliyat yuki yanada oshdi. Shunday kunlarning birida internet tarmog‘i orqali uy sharoitida bedana boqish haqidagi lavhani ko‘rib qoldi. Bu g‘oya unga tinchlik bermadi. Kerakli manzillarga qo‘ng‘iroq qildi, soha vakillari bilan uchrashdi, ish o‘rgandi, tajriba almashdi.

Dastlab bedana jo‘jasidan ming bosh olib keldi, samarasi yaxshi bo‘ldi. Shu tariqa “Rishton oqqushi” oilaviy korxonasiga asos soldi. Faoliyat ko‘lamini kengaytirish uchun “mahalla yetilligi” tavsiyasi bilan “Har bir oila tadbirkor” dasturi doirasida 33 million so‘m imtiyozli kredit oldi. Hozir oilaviy korxonada 5 ming dona bedana bor. Kunlik mahsuldorlik hajmi 4000 dona tuxumni tashkil qiladi. Bir dona tuxum o‘rta hisobda 400 so‘mdan sotilyapti. Do‘ppini boshdan olib xomcho‘t qiladigan bo‘lsak, bir kunda 1 million 600 ming so‘mga mahsulot sotilyapti. Bundan bedanalarini boqish xarajatlari chiqarib tashlansa, kunlik sof foyda 800 ming so‘mni tashkil qilmoqda. Bu bir oyda 24 million so‘m daromad degan gap. Svuda qaynab pishgan va po‘sti archilgan tuxum esa 600 so‘mdan sotiladi. Shu orqali daromad yanada ko‘payadi.

— Bedana jo‘jalari 45-50 kunda tuxumga kirib, bir yil mahsulot beradi, — deydi Muhriddin Xolmatov. — Ularni boqish boshqa parrandalarga nisbatan birmuncha oson. Kasalliklarga chidamli, tuxum berish jarayonida ko‘p xarajat talab qilmaydi. Bu ishni boshlab kam bo‘lmadik. To‘rtta ish o‘rni yaratdim, uy-joy, ota-ona xizmati, farzandlar ta’lim-tarbiyasi, to‘kin dasturxon... sanayversak, foydasi ko‘p. Buning barchasi, avvalo, tadbirkorlik sohasida yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlar, so‘ng izlanishlarimiz mahsuli. Xorijda ishlab yurganimda bu natijalarga erishish uchun bir necha o‘n yillar kerak bo‘lardi. Aytmoqchiki bo‘lganim bedanachilik koni foyda.

Yosh tadbirkor faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida 50 million so‘m kredit oldi. Bu yangi mavsumda 30 ming bosh bedana boqish va bir kunda 25 ming dona tuxum olish imkonini beradi. Bundan tashqari, inkubatoriya, go’sht yo‘nalishida parrandachilik va kurkachilikni yo‘lga qo‘yish borasida yangi loyihalarni amalga oshirmoqchi.

— Bunday tashabbuskorlik ko‘plarga ibrat bo‘ladi, albatta, — deydi “Mevazor” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Umidjon Abduraimov. — Migratsiyadan qaytgan yoki xorijda ishlashni orzu qilgan yoshlar bilan uchrashganda Muhriddinning ish tajribasidan ibrat olishni tavsiya qilaman. Mahallamizdagi 886 ta xonadonda 4520 nafar aholi istiqomat qiladi. Yil boshidan buyon “mahalla yetilligi” bilan har bir oila hayot tarzi, muammolarini o‘rganib, ishsizligi aniqlangan, mehnat migratsiyasida bo‘lgan 92 fuqaro bilan alohida ishlashga harakat qilaymiz. Ularning taklif va istaklarini o‘rganib, sanoat, xizmat ko‘rsatish, tomoqchilik, chorvachilik yo‘nalishlarida 50 dan ortiq mikroloiyihalarni ishga tushirish bo‘yicha takliflar berdik. Ishlash istagi bor, lekin yetarli malakaga ega bo‘lmagan yoshlar, xotin-qizlar “Usta-shogird” an‘analari asosida kasb-hunarga jalb etilyapti. Mahallamizda bekor yurgan odam, bo’sh qolgan tomoqqa yo‘q.

Aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar qishloq odamlari hayot tarziga ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqda. Xususan, o‘tgan yili ijtimoiy, iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida qiymati 568 million so‘m bo‘lgan 35 dan ortiq mikro va makroloiyihalar ishga tushirildi. Shu orqali 100 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. Natijada mahalla ishsizlik, kambag‘allikdan xoli hududlarning biriga aylandi. Sirasini aytganda, Mevazor mahallasidagi yangi loyiha va tashabbuslar aholi daromadi, hudud obodligida o‘z aksini topyapti. Bu agar insonda ishtiyoq va harakat bo‘lsa, albatta, natijaga erishadi degan hayotiy haqiqatni yodga soladi.

Rasuljon KAMOLOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

So‘nggi yillarda xalqaro maydonda yuz berayotgan turli jarayonlar, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy qarama-qarshiliklar kuchayishi, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlilikali vaziyat butun jahon hamjamiyatini jiddiy o‘yga solmoqda. Shu bilan birga, xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar avj olayotir, texnologik va ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqeelikni vujudga keltirdi.

Bunday murakkab sharoit har bir davlatdan o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga tashqi va ichki siyosatda o‘ta puxta, muvozanatli va uzoqro‘k zlagan yondashuvni talab qiladi. Hozirgi global voqeelik shundan dalolat beradiki, barqaror rivojlanishga faqat o‘zaro ishonch, muloqot va amaliy hamkorlik asosida erishish mumkin. Xalqaro ommaviy axborot vositalari ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda dunyo miqyosida 59 ta faol nizo qayd etilgan. Bunday sharoitda xalqaro munosabatlarda o‘zaro ishonch, muloqot va mas’uliyati yondashuvning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Shu ma’noda, Prezidentimiz boshchiligida ichki va tashqi siyosatda tizimli islohotlar amalga oshirilayotgani tahsinga loyiq. Zero, ushbu islohotlar aniq natijalari bilan nafaqat mamlakat ichida, balki keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat tomonidan ham yuksak baholanmoqda. Olib borilayotgan siyosatning asosiy mohiyati davlat va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ochiqlik va amaliy hamkorlikni kengaytirishdan iborat. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, global miqyosda keskinlik saqlanib qolayotgan va davlatlar o‘rtasida ishonch zaiflashayotgan hozirgi sharoitda tinchliksevatlik va vositachilik tamoyillariga umumiy sodiqlik har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb



Firuza MUHITDINOVA,  
yuridik fanlar doktori,  
professor

etib bormoqda. Global savdo tizimida “o‘yin qoidalari” o‘zgarayotgan bir paytda islohotlarimiz uchun mustahkam olimiyaviy baza bo‘ladigan oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda tinchlikni saqlash va uni mustahkamlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tinchlik barqaror taraqqiyot, jamiyat farovonligi va insonlar hayotida xotirjam muhitni ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Yurtimizda tinchlikni asrash orqali ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch mustahkamlanadi. Bu esa iqtisodiy rivojlanish, islohotlarni izchil davom ettirish hamda aholining turmush darajasini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ta’kidlash joizki, tinchlikni ta’minlash faqat xavfsizlik masalasi emas, balki keng ma’nodagi ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Yosh avlodni vatanparvarlik, bag‘rikenglik va mas’uliyat ruhida tarbiyalash, jamiyatda qonuniylik va adolat tamoyillarini qaror topitirish tinch va osoyishta hayotimizning muhim shartlaridan biri.

Bugun yoshlar uchun ta’lim olish, o‘z qobiliyatini namoyon etish va jamiyat hayotida

faol ishtirok etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Barcha sohalarda qulay shart-sharoitlar mavjud. Ammo vatanparvarlik tuyg‘usi qalbdan his etilmasa, tinchlikni asrab-avaylash kabi muqaddas burchni to‘liq anglash qiyin bo‘ladi. Shu bois, global o‘zgarishlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda mustaqil fikrlaydigan, o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega, ongli va mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan shu vazifani izchil va tizimli amalga oshirish orqali jamiyatda barqaror tinchlikni ta’minlash mumkin.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish faqat targ‘ibot bilan emas, balki amaliy ishlar orqali ham amalga oshirilishi kerak. Shu ma’noda, davlatimiz rahbarining parlament va yurtdoshlarimizga navbatdagi Murojaatnomasida aytilgan quyidagi fikrlar juda katta ahamiyatga ega: “**Yaqinda texnikumlarga zamonaviy qiyofa va yangicha muhit olib kirish bo‘yicha besh yillik dasturni tasdiqladik.**

**Mening niyatim — yoshlarimiz talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha dunyoda raqobatdosh bo‘lsin, kerak bo‘lsa, boshqalardan bir pog‘ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida kasbiy ta’limning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Buning uchun 2026-yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to‘liq ta’mirlab, texnologik va talab yuqori bo‘lgan kasblarga mos holda jihozlab boramiz. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg‘or ta’lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazamiz”.**

Darhaqiqat, yoshlarning Vatanga sodiqligi, ularning fikri va mehnati qadrlanayotganini his etishi muhim. Bu jihat ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga olib keladi. Ana shunda ular jamiyatdagi barqarorlikka befarq bo‘lmaydi, bo‘layotgan voqealarga mas’uliyat bilan yondashadi, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini chuqur his qiladi.

Bugungi kunda axborot oqimi juda tez. Turli g‘oyalar, qarashlar va ta’sirlar yoshlar ongiga oson kirib kelmoqda. Shu bois, ularni mustaqil fikrlashga, haqiqatni yolg‘ondan ajrata olishga



o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ongli, bilimli va hayotga to‘g‘ri qarashga ega yoshlar jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda ishonchli tayanch bo‘ladi. Yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etsa, qonunlarga amal qilsa, adolat va o‘zaro hurmat qadriyat sifatida qaror topadi. Bu esa har qanday tahdid va beqarorlikka qarshi eng mustahkam qalqondir. Sababi tinchlik, avvalo, inson ongida, uning dunyoqarashi va qadriyatlarida shakllanadi.

Shu ma’noda, bugungi global o‘zgarishlar sharoitida yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan amaliy harakatlar nafaqat hozirgi kun, balki mamlakatning kelajagi uchun ham xizmat qiladi. Ongli, mas’uliyatli va vatanparvar yoshlar bor joyda tinchlik barqaror bo‘ladi, jamiyat esa ishonch bilan olg‘a qarab rivojlanadi.

Prezidentimiz 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida “Birinchi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, deya ta’kidladi. Bu fikrlar bejiz aytilmagan. Bugungi kunda yoshlar davlat siyosatining markazida turibdi. Mamlakatda yosh avlodning bilim olishi,

kasb-hunar egallashi, o‘z alohijiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta’lim tizimini isloh qilish, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar aynan yoshlar kelajagi bilan bog‘liq.

Bugungi global tahdidlar, axborot makonidagi keskin raqobat va mafkuraviy ta’sirlar sharoitida yoshlarning to‘g‘ri yo‘l tanlashi, sog‘lom tafakkurga ega bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, davlat tomonidan olib borilayotgan yoshlar siyosati mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik va uzoq muddatli taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va davlat boshqaruvidagi ishtiroki sezilarli darajada kengayib, bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili o‘nlab qonunchilik hujjatlari qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yoshlar qadam qo‘ymoqda va bu raqam 2030-yilda 1 millionga yetishi kutilmoqda. Yoshlar bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida so‘nggi 8-yilda yosh tadbirkorlar soni 3 baravar oshdi, ishsiz

yoshlar soni esa 2 baravar kamaydi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida “Vatan tayanchi” harakati tashkil etilib, unda 1 milliondan ziyod yosh qatnashmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlari davlat tomonidan himoyalashni va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag‘batlantirilishi kafolatlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek, “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi”.

Xulosa qilib aytganda, bugun dunyoda ko‘plab muammo va qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston o‘z yo‘lini oqilona va qat’iyat bilan davom ettirmoqda. Tashqi va ichki siyosatda barqarorlik, hamkorlik va ishonchga asoslangan qarorlar qabul qilinmoqda. Bunday yondashuv milliy manfaatlarimiz hamda jamiyat farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish esa dolzarb vazifamizdir. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, bizlar aziz yoshlarimizning azmu shijoatiga ishonamiz!



## BU DUNYO – KURASH MAYDONI

quroli – sog‘lom jism-u tan, o‘tkir aql va xush axloq



Otabek HASANOV,  
Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi rahbari,  
siyosiy fanlar doktori

MAMLAKAT RAHBARIYATI  
ATROFIDA SHAKLLANGAN  
ISLOHOTLAR RUHI, MILLIY  
MANFAATLAR USTUVORLIGI,  
TINCHLIK VA BARQARORLIKKA  
QARATILGAN STRATEGIK

YONDASHUVNI JAMIYATNING BARCHA QATLAMI QO‘LLAB-  
QUVVATLASHI TABIIY HOLGA AYLANMOG‘I LOZIM. BU YERDA  
GAP SHAXSGA EMAS, BALKI UMUMIY YO‘LGA ISHONCH,  
TANLANGAN TARAQQIYOT MODELIGA SADOQAT HAQIDA  
BORMOQDA.

## Boshlanishi 1-betda

Shvetsiyaning Uppsala universitetidagi Tinchlik tadqiqotlari dasturi ekspertlarining tahliliga ko‘ra, 2024-yilda kamida bitta davlat ishtirok etgan 61 ta faol nizo qayd etildi. Bu 2023-yildagidan 59 ta ko‘p. Statistika yuritila boshlagan 1946-yildan buyon eng yuqori ko‘rsatkichdir. Ushbu nizolarning 11 tasi urush darajasiga yetgan. Bu esa bir yil davomida eng kamida 1000 kishining o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Holbuki, 2016-yildan beri bunday yuqori ko‘rsatkich qayd etilmagan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda butun dunyo bo'ylab armiya uchun 2,4 trillion dollar, rivojlanish uchun 224 milliard dollar yo'natilgan. Eng kam mablag' tinchlik uchun ajratilayotgan bo'lib, 669 million dollarni tashkil qilarg ekan.

Bundan ko'rinib turibdiki, bugun dunyo notinch, urush qurollari tobora ko'paytirilib, eng aziz ne'mat — tinchlik esa xavf ostida qolmoqda. Lekin uzozdagi bo'ron bizga yetib kelmaydi degan loqaydlik va befarqlik bilan yashab bo'lmaydi. Qo'lda borini asrash, doim hushyor va sergak turish bugun har qachongidan ham muhim.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va isloh qilish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi vatan mudofaasi, xalq tinchligi, zamon qudrati, haqiqiy vatan himoyachisi qanday bo'lishi kerak degan masalalarga qaratilgani bejiz emas.

## Vatan — mangu muhabbat!

Tarix guvoh: vatan shunchaki jug‘rofiy hudud emas, avvalo, inson qalbida yashaydigan muqaddas sevgi, mangu muhabbatdir. Bu aziz tuyg‘u har doim odamga kuch, xalqqa qudrat, buyuk g‘oyalarga quvvat bergan, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi jasorat egalarini dushmanga tik qaratgan, yovga bosh egdirmagan. Shu bois, dushman doim, avvalo, shu muhabbat, shu ruhini o‘ldirishga, so‘ng jangga kirishga harakat qilgan.

Bu haqdagi misollarni ko‘p eshitganmiz, o‘qiganmiz. Yog‘iylar el-yurti uchun ko‘ksini qalqon qilishga shaylangan jangchining ruhini o‘ldirish uchun uning orqi, nomusi, tuprog‘ini toptab, oilasi, ota-onasiyu farzandlariga daxl qilib, qanday bo‘lmasin, shijoatini mahv etishga uringan. Demak, vatanga muhabbat mavhum, qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, surati-yu siyrati yo‘q tushuncha emas. Unda ota-ona, yor, farzand, tug‘ilib o‘sgan maskan, ajdodlar timsoili birlashadi. Bu rishtalarning har biri Vatanga yetaklaydi, vatanparvarlik bilan bog‘lanadi. Zero, hazrat Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida shunday bayt bor:

*Iyolu Vatan uzra to joni bor,  
Kishi harb etar, toki imkoni bor.*

Bu baytda ulug‘ shoir “Har bir inson, u haqiqiy inson bo‘lsa, to tirik ekan, o‘z Vatani va oilasi (iyolu)ni imkoni boricha yovdan himoya etishga harakat qiladi”, deya yozadi.

Tanani jismonan chinqitirish, baquvvat qilish mumkin. Ammo ongi zaif, qalbi ojiz kimsa janglarda oson yengiladi. Ayniqsa, hozirgi zamonaviy urushlar inson qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan bir davrda ruhan yengilmaslik sharti qo‘yilmoqda.

Demak, ruhan yetuk bo‘lishning dastlabki, eng muhim sharti vatanni yurakdan sevish, shu tuyg‘u bilan yashashi. Lekin u qanday paydo bo‘ladig, qanday rivojlaniriladi-yu qanday qilib umrbod qalbda qoladi? Ayniqsa, bugun globallashayotgan dunyo har kuni millionlab xavf-xatarlarni izma-iz maydonga chiqarayotgan bir pallada bu vazifani uddalashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

Avvalo, vatanparvarlik tuyg‘usi milliy g‘ururdan kuch-qudrat oladi. Milliy g‘urur kecha yo bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u tarix bilan chambarchas bog‘langan, ajdodlar ruhidan kuch olgan ma’naviy hodisadir. Milliy g‘ururni yuksaltirishda eng asosiy tayanch buyuk tariximizni, yengilmas, mard sarkardalarimizning matonati va jasoratini yoshlarimiz ruhiyatiga singdirishdir.

Xususan, “Temur tuzuklari” orqali buyuk sarkarda sadoqat, qat’iyat, adolat va jasorat kabi fazilatlarni muhim ekani, jangda bilak bilangina emas, otashin yurak, baland ruh bilan g‘alabaga erishish mumkinligiga urg‘u beradi. Shu sabab u jangchining ruhiy iradosini ham muntazam mustahkamlab borish lozimligini ta’kidlaydi. Amir Temur o‘zining harbiy yurishlarida cholg‘u asboblariidan keng foydalangan, uning barcha mashq va janglarida harbiy musiqa hamroh bo‘lgan.

Hozir yurtimizda askarlarning ruhiy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan kuchli bo‘lishiga

qaratilayotgan e’tibor ham ajdodlarimizdan qolgan meros, otayo‘ldir. Shu sabab davlatimiz rahbari doim har bir askar, vataning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ bobolarimiz o‘g‘itlarini, ularning merosini chuqur anglashi lozimligini ta’kidlab kelmog‘da.

Chunki zamonaviy dunyo, globallashayotgan davr aslida har birimizdan chin ma’noda vatanparvar bo‘lishni talab qilmoqda. Axborot maydoni tom ma’noda muhoraba maydoniga aylanib bormog‘da. Bunday qaltis jarayonda teran aql, keng mulohaza, vatanparvar qalbigina g‘olib bo‘lishi, tahdidlarga qarshi tura olishi mumkin. Shu bois, yoshlarni Amir Temur merosi asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy, yangicha usullarini topish, amaliyotga joriy qilish lozim.

Shuning uchun Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Mudofaa vazirligi, Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Fanlar akademiyasi yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy tarix va milliy armiyaga nisbatan g‘urur hissini uyg‘otish, shuningdek, tarixiy manbalar va qo‘lyozmalarni chuqur o‘rganish asosida harbiy sohadagi boy tarixiy tajribamizni tiklashni o‘z oldiga birlamchi vazifa qilib olgan. Bunda buyuk hukmdor va sarkarda ota-bobolarimizning jang san’ati, harbiy sohadagi qarashlari va islohotlarini o‘zida aks ettiruvchi asarlar, qiziqarli kitobchalar nashr ettirish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, buyuk sarkardalar qiyofasini yaratish va yoshlar orasida ommalashtirish zarurati bor, albatta.

## Ma’naviy ruh — buyuk kuch

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan xitoylik strateg va mutafakkir Sun Szingning “Urush san’ati” asarida yozishicha, askarlardan nafaqat harbiy-taktik bilim va malaka, balki mustahkam ma’naviy ruh ham talab etilishi kerak.

Vatanparvarlikning yana bir muhim asosi ma’rifatdir. Zero, Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlarida ham ma’rifat buyuk ishlar, yuksak g‘alabalarga sabab bo‘lgan.

Shu bois, davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘z’lagan bayram tabrigida “Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat’iyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mardona fazilatlari hal qiladi”, deya ta’kidladi.

Zero, vatanparvarlik amaliy harakatlarda, tinmay izlanish, yangiliklarga intilish, o‘z ilmu amali bilan el yurtga naf yetkazish, fidoyilikda namoyon bo‘ladi.

Albatta, bugun urushning qiyofasi ham o‘zgaragan. Ochig maydonlarda yuzma-yuz urushish tarixida qolib, hozir “axborot urushi”, “ong urushi”, “texnologik urushlar” kabi turlari ko‘payib bormog‘da. Dunyodagi qudratli davlatlar shu urushlarda yetakchilikka ham intilmog‘da. Bunday sharoitda vatan himoyachilarning bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi, zamonaviy texnologiyalardan xabardorligi har qachongidan ham zarur.

Endi armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo‘lib chiqishi bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Harbiy qismlardagi asosiy yo‘nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo‘yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o‘tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi. Har yili 5000 askar saralab olinib, “Bir million dasturchi” va “Besh million sun’iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida o‘qitilishi ma’lum qilindi.

Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida harbiy qismning o‘zida oliygohga o‘qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o‘qiy boshlaydi. Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo‘lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajati qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontrakt asosida o‘qishga kirs, fozisiz ta’lim krediti ajratiladi. Bular yoshlarimiz uchun ochilayotgan katta imkoniyat eshiklaridir.



“Statistik ma'lumotlarga qaraganda, feyk, ya'ni yolg'on informatsiyalar to'g'ri, haqqoniy xabarlarga qaraganda 6 barobar tez tarqalar ekan. Bu nima degani? Mafkuraviy xatarlar xavfi qay darajada adashtiruvchi, yo'ldan uruvchi kuchga ega ekanini shundan ham bilsa bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish bilan birga ma'naviy olamini ham muntazam boyitib borish bugunning talabidir. Albatta, ma'naviy olam kitobxonlik, adabiyot, kino, san'atdan kuch, rag'bat oladi. Shu bois, Ma'naviyat va ma'rifat markazi ham o'z oldiga harbiy askarlar ishtirokida kitob muhokamalariga qaratilgan doimiy adabiy klublar, “So'z” loyihasi doirasida kino qiyoslarda she'riy konsert dasturlari, kino namoyishlarini o'tkazib borishni maqsad qilgan.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining harbiy-vatanparvarlik sohasidagi faoliyati yanada kuchaytiriladi, harbiy sohada maqsadli ma'naviy-ma'rifiy loyihalar hamda mahdalkampaniyalar amalga oshiriladi, muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chiqiruv rezervi xizmati, shuningdek, umumta'lim maktablaridagi “Vatan tayanchi” gunhurlari bilan mafkuraviy yo'nalishlarda “tadqiqot — tahlil — kompleks chora-tadbirlar — natija” janriga asoslangan tizimli ishlar bajariladi, harbiy tuzilmalar bilan belgilangan vazifalar doirasida uzluksiz hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

## Proaktiv rejim — zamon talabi

Davlatimiz rahbari Xavfsizlik kengashi yig'ilishi davomida tinchlik va xotirjamlik yurtimiz uchun eng katta boylik ekanini, uni asrash bo'yicha “proaktiv rejim”ga o'tish shartligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, bugun zamon shunaqa, bugun zamonaviy yoshlar ham, ijtimoiy tarmoqlar ham shunday jarayonda. Shu bois, hozir barchamiz “proaktiv rejim”da vaziyat yuzaga kelishini kutmay, oldindan harakat qilishimiz, tashabbuskor bo'lishimiz, ishga ijodiy yondashishimiz, muammolarning oldini olish uchun faol choralar ko'rish yo'lga o'tishimiz shart.

Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'tgan yili yurtimizning barcha hududini qamrab olgan sotsiologik tadqiqot o'tkazdi. Unda 22 ming 335 respondent ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 70 foizi ijtimoiy tarmoqlar yetakchi axborot manbai ekanini ta'kidlagan.

## Yangi O'zbekiston ruhi



## “Zed”, “Alfa” avlod: biz ularni taniymizmi?

Yuqorida urushlarning qiyofasi zamonaviylashayotganini aytdik. Bu murakkab jarayonda, ayniqsa, yoshlar ongi, ruhini egallashga qaratilgan janglar kuchaygan. Bu makkor kurashlar, xususan, yoshlarga mo'ljallangan. Chunki bugungi yoshlar yangi avlod, ularning qarashi, qadriyatleri o'zgaruvchan, ular tez ta'sirlanadi, hali tajribasiz, adashishi ham osonroq. Biz bugun tez-tez eshitayotganimiz “Zed” avlod to'liq raqamli davrda voyaga yetgan birinchi avloddir. “UN World Population Prospects — 2024” ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunlari bo'yicha yoshlar (15-24 yoshdagilar) soni taxminan 1,3 milliard kishini tashkil etadi.

Shuningdek, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2024-2025-yillarda “Zed” va “Alfa” avlod vakillari birgalikda cayanorimiz aholisining taxminan 47 foizini (O'zbekistonda 60 foiz) tashkil qiladi. Bunda “Alfa” avlod (24,4 foiz) “Zed” avlodidan (22,9 foiz) bir oz oldinda bormog'ga.

Yana bir ma'lumot bizni sergak torttirishi aniq. 2024-2025-yillarda ushbu yosh guruhidagi yigit-qizlar turli mamlakatlarda norozilik namoyishlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan.

Instagramda 18-24 yoshdagilar dunyodagi foydalanuvchilarning eng katta ulushini (31,7 foiz) tashkil etadi. Barcha foydalanuvchilarning 60 foizi esa 35 yoshdan kichikdir. 2024-yilda TikTok global auditoriyasining 36 foizi (taxminan 543 million kishi) 18-24 yoshdagilar hissasiga to'g'ri keldi. Yana 33,9 foizi esa 25-34 yoshdagilardir. TikTok auditoriyasining qariyb 70 foizini 18-35 yoshdagi qatlam tashkil etadi.

Mazkur raqamlarga qarab, ko'pni ko'rganlarning psixologik urushda jismoniy emas, balki ma'naviy va sergaklik jihatidan mudroq tomon yengiladi degan so'zlarini yana bir bor eslab kifoyfa. Bugun hushyorlik va ogohlilik doim darvozalarini ochiq bo'lgan, chegaralari yo'q virtual olamda yanada muhim. Zero, bugun yana texnologiyalar ham kognitivlashmog'ga. Bu haqda kuni kecha yaxshi ma'lumot o'qidim. Unga ko'ra, bu jarayon G'arbda NBIC konvergensiya deb ataladi. NBIC qisqartmasi N — nano, B — bio, I — axborot, C — kognitiv ma'nolarini anglatadi. Albatta, bu jamiyat ravnaqiga xizmat qilmoqda. Biroq olimlar yuzaga keladigan ma'naviy-axloqiy o'zgarishlardan ham barchani ogohlantirmog'ga.

Bularning barchasi bugun targ'ibotning ko'p qismi ijtimoiy tarmoqlarga ko'chirilishi zarurligini ko'rsatib turibdi. Shu ma'noda, kelgusida ziyolilar birlashib, ijtimoiy tarmoqlar orqali egzu fikr, egzu g'oyalarni ko'proq yoyishi, yosh avlodni ortidan ergashitra oladigan darajada zamonaviylashishi shart. Shuningdek, ba'zi davlatlarda bugun kiberaskar, g'oyaviy jangchi kabi terminlar paydo bo'lmoqda. Ularning vazifasi — mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish. Bu yo'nalishda oldimizda turgan vazifalar, bajarilishi zarur bo'lgan ishlar ko'p, albatta.

## Jamiyatning ruhiy tayanchi

Abdurauf Fitratning “Bu dunyo — kurash maydoni. Bu kurashning quroli sog‘lom jism-u tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir” degan purnma’no gap bor. Azaldan kurash maydonida vijdoni ushbu yo‘q, ma’rifati yuksak ziyolilar

bo‘lgan. Ular o‘zining hur fikri, egzu o‘yi ortidan ko‘plab insonlarni ergashtirib, jamiyatni ma’rifatning eng oldingi bosqichlariga olib chiqqan. Jarayonlar tezlashgan, axborot oqimi cheksiz, g‘oyalar to‘qnashuvi esa yangi bosqichga ko‘tarilgan bir pallada jamiyatning ruhiy tayanchi bo‘lgan ziyoli qatlam zimmasiga alohida vazifalar yuklanmog‘ga.

Har bir tarixiy burilish nuqtasida xalq taqdiriga daxldor qarorlar qabul qilingan, kelajak yo‘nalishi belgilab olingan. Bunday pallalarda jamiyat ichida ma’naviy jipslik ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bugun shu haqiqat yana bir bor o‘z tasdig‘ini topmog‘da. Mamlakat taraqqiyoti, tinchlik va barqarorlikni saqlash, yosh avlod qalbida ishonch va faxr tuyg‘usini mustahkamlash yo‘lida har bir fikr egasi o‘z o‘imini anglab yetishi zarur.

Shu nuqtaiy nazardan, mamlakat rahbariyati atrofida shakllangan islohotlar ruhi, milliy manfaatlar ustuvorligi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan strategik yondashuvni jamiyatning barcha qatlami qo‘llab-quvvatlashi tabiiy holga aylanmog‘i lozim. Bu yerda gap shaxsga emas, balki umumiy yo‘lga ishonch, tanlangan taraqqiyot modeliga sadoqat haqida bormog‘da.

Bugungi axborot makonida har bir so‘z, har bir munosabat jamiyat kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tanqid ham, tahil ham, bahs ham milliy manfaatlar mezonida olib borilishi zarur. Vagtinchalik ehtiroslar, tashqi ta’sirlar, sun’iy kun tartiblari ortidan ergashish jamiyatni chalq’itishi mumkin. Bunday holatlarda vazminlik, fikriy barqarorlik, uzogni ko‘ra bilish fazilati alohida qiymat kasb etadi.

Tarix shundan dalolat beradiki, xalq va uning yetakchi fikr egalari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud bo‘lgan davrlarda taraqqiyot tezlashgan, xavf-xatarlar kamaygan, kelajakka ishonch mustahkamlangan. Bugun ham shunday ziyolilar, zamonaviy uyg‘og‘ fikrlilar birlashib, xalqimiz orasida targ‘ibot tadbirlarini olib borish bilan birga ijtimoiy imbotlarga ham faol bo‘lishni zamon talab qilmoqda. Shu ma’noda, an’anaviy ravishda “Ziyolilar forumi” o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Bu orqali ularning ilg‘or fikrlari, boy tajribasi asosida doimiy targ‘ibot ishlari tashkil etiladi. Mamlakatimizdagi islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishda ziyolilarning ijtimoiy faolligi yanada kuchaytiriladi.

Birgina misol: shu kunlarda Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanida ziyolilar bilan birga Prezidentimizning Murojaatnomasi, Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida olg‘a surgan g‘oya va tashabbuslari, ularning mazmun-mohiyati bo‘yicha samimiy muloqotlar tashkil qilindi.

Xalqimiz bugun tinchlik degan ne’matni asrash, farzandlarga ilm berish, kasb o‘rgatish har qachongidan ham muhimligini teran anglamog‘da. Shu maqsadda 200 dan ortiq ziyolilar korpusi tashkil etilib, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi bilan barcha mahallada shunday targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Bu bejiz emas. Prezidentimiz qayd etganidek, “Albatta, bugungi murakkab zamonada yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda, hech shubhasiz, o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi bo‘lgan mahallalarning o‘rni va ahamiyati katta”.

Shu o‘rinda buyuk olmon shoiri Gyotening asar qahramoni Faust tilidan aytgan:

*Kim erk, hayot deb jang qilolasa har kun,*

*Erk hayot uchun o'sha munosib*

degan satrlari yodga tushadi. Bugungi zamon ham barchamizdan erk, tinchlik, xotirjam hayot yo‘lida har kuni kurashishni, ma’rifat va ma’naviyatni bunda asosiy kuchga aylantirishni, ayni chog‘da har birimizdan kuchli fuqarolik pozitsiyasini ham talab qilmoqda. Bu pozitsiya tinchlikni asrash, barqarorlikni mustahkamlash, kelajak avlod oldida mas’uliyatni his etish bilan o‘lchanadi. Ana shu his birlashgan joyda esa jamiyat yengilmas kuchga aylanadi, yurt ravnaq topib, yanada qudratli bo‘ladi!















## Millat fidoyilari

**Turkiston  
jadidlari rahnamosi  
bo'lgan Mahmudxo'ja  
Behbudiy fenomenal  
adabiy shaxsiyatdir. Uning  
mutaraqqiy dunyo bilan  
barobar rivojlanish orzulari,  
taraqqiyot konsepsiyasi ortida  
birlashmoq orzusi, millat  
qayg'usi, insonparvarlik va  
vatanparvarlik g'oyalari  
turibdi.**

Birlashmoq  
VA TARAQQIY QILMOQ KERAKJADIDLAR MEROSI VA  
ZAMONAVIY MEDIA  
IMKONIYATLARI O'ZARO  
UYG'UNLIKDA

Jadidchilik harakati o'z davrida jamiyatni isloh qilish, milliy ongni uyg'otish va ma'rifatni targ'ib etishda muhim o'rin tutgan. Ushbu jarayonning asosiy vositalaridan biri sanalgan jadid publitsistikasi matbuot, ommaviy axborot va jamoatchilik fikrini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu boy merosni zamonaviy media nazariyalari, jurnalistika amaliyoti va raqamli axborot makoni bilan o'zaro uyg'unlikda o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Turk Dunyosi Birlashgan Ziyolilar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda "Jadid" gazetasi bilan hamkorlikda joriy yil 19-yanvar kuni Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 151 yilligi munosabati bilan "Jadid publitsistikasi va zamonaviy media tadqiqotlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

publitsistikasining nazariy asoslari, tarixiy manbalari, matbuotdagi o'rni, shuningdek, uning zamonaviy jurnalistika va raqamli media bilan aloqador jihatlarini muhokama qilindi.

Tadbir davomida filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidovning "Turkiston dahosi" kitobi taqdimoti o'tkazildi hamda Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi maxsus stipendiya g'olillarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Anjuman yakunida saralangan ilmiy maqolalarni to'plam holida nashr qilish, shuningdek, ilmiy jamoatchilik va keng axborot makoniga taqdim etish masalalari kelishib olindi.



**Anjuman yakunida saralangan ilmiy maqolalarni to'plam holida nashr etish, shuningdek, ilmiy jamoatchilik va keng axborot makoniga taqdim etish masalalari kelishib olindi.**

Mazkur anjuman jadid ma'rifatparvarlarining publitsistik merosini chuqur ilmiy tahlil qilish hamda uni zamonaviy media tadqiqotlari bilan qiyosiy o'rganishga bag'ishlandi. Unda xorijiy mamlakatlardan kelgan yetuk olimlar, tadqiqotchilar, jurnalistlar, doktorantlar hamda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari ishtirok etdi. Konferensiya doirasida jadid

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya jadid publitsistikasi va zamonaviy media tadqiqotlari o'rtasidagi ilmiy muloqotni mustahkamlash, milliy va global axborot makonida mazkur yo'nalishning nufuzini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy maydon bo'lib xizmat qiladi.

**Jonibek ALIJONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**



**Bahodir KARIM,  
filologiya fanlari doktori,  
professor**

Behbudiy o'z maslakdoshlarini, izdosh shogirdlarini taraqqiyotga, uyg'onishga, birdamlikka, birlikka, birlashmoqqa, hurlikka chorladi. Adib qoldirgan adabiy-ilmiy merosi — ulkan, bebaho xazina. Ular negizida uyg'otuvchi fikr, hayotiy taklif, kelajakka munosib reja va dasturlar ko'p.

Behbudiy fikr odami, fikrsiz odam o'lik bilan barobardir. Uning "Taraqqiy" gazetasida bosilgan "Gazet nador?" nomli maqolasi bor. Vaqti matbuot qadr-qiyamati atroflicha tushuntirgan Behbudiy tarixdan misollar keltiradi. U zamonada dunyo allaqachon taraqqiyotga yuz tutgan edi.

Shunga monand Behbudiy dunyoning turli hududlarida nashr bo'layotgan gazeta va jurnallar borasida ma'lumotlar berib yozadi: **"Bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Qudus mamlakatlarida har xil gazetlardan yuzdan ziyoda chiqar, Rusiyada chiqayotgan har nav jarida va majallalarni adadi bir ming'ga yetib, balki o'tadur"**. 1905-yildan keyingi ikki yil ichida Rusiya musulmonlari tomonidan o'ttizdan ortiq gazeta va jurnal chiqarilmoqda ekan.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Gazet nador?" deb sarlavhaga chiqargan maqoladagi savolga javoban bunday yozadi: "Sho'ylaki, jarida uyinayi jahonnomadur. Gazet o'quydurgan kishi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni va har toifaning taraqqiy va tanazzuli va oni sabab va illatini, o'z din va millatiga aqayu toifa do'st, qayu toifa dushmanligini bilur. Hayoti ijtimoiyasiga na lozimdur bilur". Tabiiyki, bunda gazetani kim chiqarayotgani va jamoaning maslasi ham muhim. Darhaqiqat, bunday ijtimoiy-ma'rifiy hodisalarning "taraqqiy va tanazzuli" sabablarini adib umr bo'yi izladi.

Hamma zamonlarda taraqqiyot, yuksalish, rivojlanishning "sharti a'zami faqat o'qumog'", o'zlikni anglamog'dur.

Bundan bir yuz yigirma yil muqaddam bosilgan "Millat vazifasi" ("Ulfat", 1906-yil 18-son) maqolasida qardosh-qo'shni millatlarning "birinchi darajada vazifalari bir-biriga qarindosh ko'zi birlan qarab, hamma bir o'lub, birlik ila ish ko'rmakdir, — deb yozadi. — "Ikkinchi vazifa esa umummusulmonlar ittihad qilub, hamma yakvujud o'laroq avlodlarni tarbiya qilmoq jihatina sarfi himmat etmakdir. Na qadar boy kishilarimiz bo'lsa, hammasi ilm yo'linda pul sarf qilsun kerak. Na qadar ahli ilm bo'lsa, hamma darajasiga ko'ra ta'lim va madoris ila mashg'ul o'lsun kerak"

Behbudiy hazratlarining chaqiriqlari va bezovtaliklariga bois, Vatan taqdiri, bebaho ona tuproq dardi edi, shubhasiz. Shu bois, "hamisha yakvujud o'laroq sa'y va g'ayrat" qilmoqni nasihat va vasiyat qildi. U erkin so'z uchun, fikr aytish uchun imkon topgan zahoti o'z hayotiy dasturlarini

bevosita milliy-ma'naviy manfaatlariga uyg'un ravishda bayon qildi. Turkiston muxtoriyati e'lon qilinganida "Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat" degan maxsus da'vatnoma bilan chiqadi. Qardosh va qo'shni bo'lgan millatlar o'zaro adovatni, nizoni, ziddiyatni bir chetga surib, jon jahdi bilan ulkanroq yovga qarshi birlashmoqqa chaqiradi. Har bir gapini chin samimiyat bilan "Aziz qardoshlarim!", "Bovurlarim!", "Chirog'larim" degan undalma so'zlar bilan boshlaydi. "Birlashg'on Turkiston xalqining bo'lunmoqig'a o'zimiz sabab bo'lmasak edi", deb Behbudiy xavotirga tushadi.

Shuning uchun ham "Chirog'larim, birlashayluk! Ko'rasiz, bu kungi ruslar-da birlashmoqdadurlar. Endi birlashmoq zamonidir", deydi. Mahmudxo'ja Behbudiy zamon va zamin holini, davr va davralar kayfiyatini chuqur anglagani bois, butun vujudi bilan birlashmoqqa da'vat qiladi. Behbudiyning bu gaplari qavmlar, urug'lar o'rtasidagi o'zaro nizolarni bir chetga surib, birlashuvga chaqirishlari qaysidir ma'noda "O'tkan kunlar" romanidagi qorachaponchi bilan qipchoq nizosiga Yusufbek hojining "Siz o'z qipchoq'ingiz uchun qabr qazig'an fursatda sizga ikkinchilar tobut chopadir. Biz qipchoqqa qilich ko'targanda o'russ bizga to'p o'qlaydir. Siz dunyoda o'zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rsangiz, men

Behbudiyning taraqqiyot konsepsiyasi negizini ilm tashkil etadi. Har qanday millat dunyoda o'z o'rinni ilm bilan topadi. "Padarkush" dramasi obrazlaridan biri Ziyoli aytadi: **"Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan"**.

"Taraqqiyot" so'zi jadid gazetasining nomi ekanini ta'kidlashga zarurat yo'q. Ayni damda "taraqqiyot" so'zi ko'plab asarlari sarlavhasiga ham chiqdi. Behbudiy o'zini o'ylantirgan, o'zini qiynagan savolni sarlavhaga chiqarib, "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" ("Samarqand" gazetasining 1913-yil 30-iyul) degan savolni ko'ydi. Shu nomda maqola yozdi: "Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridur. Taraqqiy qilg'on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvoliig'a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtarammi o'z millatlarig'a so'z va aqcha ila xizmat etganlari favran hozir bo'lur".

Ilm ahli bilan boylarning xizmati millat taraqqiysi uchun muhim ekani har jihatdan isbotlanadi. Ulamo o'z qalami bilan fikr, maslahat, pand-nasihat, ta'lim-tarbiya beradi, kitoblarni yozadi, gazeta va jurnallar nashr qiladi. Maktablarni ochadi, ta'limni isloh qiladi. "Zamonaga ag'niyolari o'z millatlarini zamonchiga kerakligi yo'linda aqcha sarf etarlar... Rus, armani,



boshqa yovni har zamon o'z yaqinimg'a yetkan ko'ramani!" degan gaplarini yodga soladi.

Shu e'tibordan Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm-ma'rifatga, ogohlikka, birlikka, taraqqiyotga da'vatlari hamisha dolzarb, muhim va, har doim bugungi kun gapidek jaranglab eshitiladi.

Behbudiy o'z maqolalarida "taraqqiyparvarlar g'ofil bo'lmasun" degan gapni ko'p takrorlaydi. "Qulil haqqa valav kana murrar" — "Achchiq bo'lsa ham haqiqatni aytgin". Ha, haqiqat — achchiq. Hikmatdan mu'rod — tarixga, zamonga, taraqqiyot va tanazzulga tegishli achchiq haqiqatni o'z o'rmi va o'z vaqtida aytish lozim.

Jadidlarning dunyo va taraqqiy zamon bilan hamnafas bo'lish degan fikri zimnida benihoya ulkan g'oya mujassam. Behbudiy bu yorug'olamda bo'layog'an voqea-hodisalardan, yangiliklardan, kashfiyotlardan, nashr bo'layotgan kitoblardan boxabarlikni tashviq qiladi.

Chorizim istilosidagi holatni mulohaza qilgan Behbudiy o'z vaqtida yozadi: "Rub'i asrdan beri molan taraqqiy qilduk, kelar zamong'a ma'ni taraqqiy qilarmiz". Dunyo ahli orasida fransuzlar, inglizlar, amerikaliklar taraqqiyga erishibdi.

"Faqat bir taraqqiy yo'lida necha yuz sanalar mol sarf etmishlar, jon qurbon etmishlar, necha-necha balolarni boshidan kechirmishlar-da, so'ngra shunday maqsadga erishmishlar". Taraqqiyot va obodlikka faqat orzuning o'zi bilan shunchaki erishib bo'lmaydi. Buning uchun shijoat, sarvat, xizmat, tadbir, bilim kerak. Taraqqiyot uchun mol sarf etish, jon fido qilish, balo va ofatlarni yengmoq lozim.

yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsanlar qiladurlar, inchunin, Kafkaz, Qrim, Qozondagi musulmon birodarlarimizni(ng) boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlarig'a mol, aqcha, qalam va ilm ila ko'b'iona qiladurlar. Ammo bizni(ng) Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo'q...". Bu orzu, niyat, havas, namuna va qiyosi shunday. "Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko'y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan. Biz musulmonimiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumog' kerak. Nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?"

Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hamoollikda va gadoliykda. Boshqa millat ulamosig'a tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'tuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur". Garchand bu maqola 1913-yilda yozilgan bo'lsa ham Behbudiyning taraqqiyotga doir qarashlari to'liga qalam olib, vaqti matbuotda ishtirok eta boshlagan dastlabki davrlardan boshlanadi. Bu maqola esa dasturiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Behbudiy qaysi mavzuni yozib muhokama qilishidan qat'iy nazar, hamisha taraqqiy va yuksalishdan so'z ochadi, hamisha taraqqiy etgan va yuksalgan dunyo millatlari va mamlakatlariga havaslanib qaraydi. Eng muhimi, taraqqiyot negizi bo'lgan islohotga, bilim olishga, dunyoning

rivojlangan mamlakatlari holiga nazar solishga undaydi. Behbudiy bunday o'rinlarda chinakam millat qahramoni, kurashchisi, fidoyisi, jonkuyariga aylanadi. Tasavvur qilish uchun aqalli "Sayohat xotiralari" asarini o'qimoq kerak. Bu asari tafsilotli va ayni damda Behbudiyning ko'ngli "O'yina"da aks etadi.

"Sayohat xotiralari" Behbudiyning shaxsi, rutbasi, niyati ulug'ligiga dalolat qiladi. Uning bilimi, oriyati, yuksak madaniyat sohibi ekani, did-farosati — barcha-barchasi bu sayohatnomada mujassamdur. Nazarimda, nafaqat Behbudiyga zamondosh ziyolilar, balki bugun ham dunyo sayohatiga yo'l olgan kimsa undan o'rganishi, unga ergashishi lozim.

Behbudiy doimo band va ma'nan juda baland odam edi. Dunyoning qaysi joyiga bormasin, o'zini

Turkistonning chin farzandi, Turkiston ahlini o'z siymosida ramzan tashiyotganini aslo esidan chiqarmagan yuragi butun va botir inson edi.

Sayohatga borgan Behbudiy Istanbulning "Gulxona parki"da Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. Ular mehmonxonada yetti soat gurunglashadi. Subhatda, tabiiyki, maktablar va millat taraqqiyoti xususida so'z boradi. Ismoilbek "Musulmonlarni kundan kun taraqqiy etishini so'ylab, xursand bo'lurlar", deb yozadi keyinchalik Behbudiy. "Avvalgi musulmonlardagi madaniyat" maqolasida ham muallif o'tmishdagi ajdodlari shon-shuhratidan, musulmonlarning madaniy taraqqiysidan va Andalusiyaning dunyodagi mumtoz o'rnidan bahs etadi: "Bir zamonlar hozirgi taraqqiy topgan xalqlardek sha'sha'a va dabdabai madaniyat va saltanatlar ko'zlarni qamashdurub, o'z zamonaga va asrlarining yagona madaniyat va saltanat va faridi edilar". Taassufki, bunday yuksak ijtimoiy-madaniy, ilmiy-ma'rifiy martaba qo'ldan ketadi. Musulmonlar "zamonga muvofiq turganlarni", ilm va fan o'miga jaholat botqog'iga botishlari, "safohat va zavqparast va itxilofg'a mayl etganlari" uchun jazo topishdi. Jaholat, tubanlashuv va o'zaro dushmanlik madaniyat va taraqqiyot kushanda bo'ldi, salatanat yemirilib quladi.

Behbudiyning barcha haqqoniy bayonlarini anglamog' uchun unga, uning dardiga, g'amiga, jahdiga, jonfidoligiga, hissiyotiga yaqinroq bormog' kerak. Behbudiy bilan oradagi masofani qisqartirish lozim. Aks holda, Behbudiy hazratlari bizga ko'nglini ochmaydi. Uni anglash uchun chin millatparvar, chin vatanparvar bo'lmoq kerak. Behbudiy uchun har narsani anglash va sezish, har narsani farqlay bilish, ya'ni tamiz muhim. Bu jihatdan ham adibning orzumand qalbiga umid urug'i ekilgandir. Shuning uchun ham hazrat yozadi: "Alhamdulillah, xalqimiz kufr ila islomni, taraqqiy ila tadanniyini, rost ila yolg'onni tamiz etadurlar".

Ko'ngli ochiq odamning yo'li ochiq bo'ladi. Ne'matlar xolis niyatli odamga kutilmagan tomonidan keladi. Bular mehnat, zahmat, xizmatlar ortidan bo'lur. Buning uchun xolisona, Alloh rizosi uchun egzu ishlarga bosh-qosh bo'lmoq, iysor lozim.

**Hayhot, hayhot, Behbudiyini anglamaganlar va anglashni xohlamaaganlar, o'qimaganlar va o'qishni istamaganlar bugun ham "Hali kitob ham o'qiymanmi?" degan e'tirozli savolni berishadi. Hali bugun ham egzu g'oyalarni "avvaldan qolgan asotirlar" deb atashadi. Holbuki, bugun imon va vijdonga ko'zgu tutadigan zamonidir. Holbuki, bugun Behbudiyini anglaydigan va uning borlig'ini har kimga anglatadigan zamonidir.**

Behbudiy faoliyatini chuqur anglagan zamondoshi Vasiy Samarqandiy "Mahmudxo'ja birodarim millati islomiyaning taoliy va taraqqiysi uchun eng birinchi darajga cholihshturg'on bir zoti humoyunsifat erdi", deb baho bergan edi.

Laziz Azizzodaning "Turkistonning uzoq moziysi qancha porloq ko'rinsa ham XVIII asrdan keyingi madaniy va iqtisodiy hayoti tubanlashgandir. Bu davrda ilm o'rmini xurofat, adolat joyini zulm, taraqqiy yerini tanazzul oldi", degan fikri bor. Mahmudxo'ja Behbudiy yo'lbo'shchilik qilgan Turkiston jadidlari xurofat o'rmiiga ilmini, zulm o'rmiiga adolatni, tanazzul o'rmiiga taraqqiyni joriy etish maqsadida yo'lga chiqdilar.

Bugun ilm orqali taraqqiy etish zamonidir. Bugun Behbudiy orzu qilgan hurriyat, istiqlol zamonidir. Bu kunlar qadriga yetmoq kerak.

Dunyo ahli bilan, mutaraqqiy millatlar bilan do'st, inoq, hamkor, hamfikr bo'lib, o'zlikni anglab, mustahkam imon va chuqur ilm ila taraqqiy etmoq kerak. Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining "bayoni haqiqat"lari, birlashish va taraqqiyot orzusi — shunday istiqbol yo'li benihoya ulug' va jiddiy edi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefonini: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-146.

32015 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 23:55